

BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA SODDALIK

Yulduz NE’MATILLAYEVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878349>

Annotasiya: Ushbu maqolada Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasi tahlilga tortildi. Qissadagi yozuvchi uslubiga xos bo‘lgan soddalik, bola nigohi yordamida kitobxon bolalikning beg‘ubor onlarini ko‘rganday va o‘zida his qilganday bo‘lishiga e‘tibor qaratildi. Qissadagi Ena obrazi yordamida haqiqiy o‘zbek ayollarining mehnatkashligi, to‘g‘riso‘z va sof qalbga ega ekanligi tahlillar yordamida ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Ena, yolg‘on so‘z, opa, Ota, Samarqand, juhud, Mardon Dalli, soddalik

Bahodir Qobul so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida o‘z uslubi va yo‘nalishiga ega ijodkorlardan biridir. Adibning, “Oybuloq, Oynabuloq”, “Sunbula”, “Oq kamar”, “Nafaqa”, “Ota chiroq” kabi hikoyalari, “Oqdala”, “O‘spirinlik” va “Enashamol” qissalari kitobxonlar va adabiyotshunoslar tomonidan e‘tirof qilingan. Bahodir Qobul ijodi xususida ko‘plab adabiyotshunos olimlar o‘zlarining ijobiy va tahliliy fikrlarini bayon qilishgan. Yozuvchidagi ijodiy qobiliyatni anglagan O‘zbekiston Qahramoni va Xalq shoiri Abdulla Oripov: “Yosh adib do‘stimning asarlaridan ilk taassurotim shundan iboratki, bu ijodda tozza va beg‘ubor havo bor. Erka va dilbar tuyg‘ular mavjud. Bularning barchasini xolis va olijanob niyat birlashtirib turadi. Shaxsan men o‘zim tarjimaga o‘xshagan asarlarni o‘qiyverib, xalqimizning jaydari, jonli tabiiy tilini juda sog‘ingan ekanman. Bahodirning tizmalarida ana o‘shalarni uchratib, xuddi yaqin qarindoshimni ko‘rgandek quvonib ketdim. Yozuvchimiz qadim va mushtipar, tanti va halol elimizga mehru sadoqatini also yashirib o‘tirmaydi. Betakror tabiatimizni esa ajib bir musavvir yangilig‘ chizishga harakat qiladi”, — deydi. Shu jumladan shoir Xurshid Davron ham: “Bahodir Qobulning shu mavzu-yu, shu ohangdagi turkumini o‘qib, baayni o‘zim yozganday bo‘ldim...”¹, — deb e‘tirof etadi.

Yozuvchi “Enashamol” qissasida o‘zining bolaligi, tug‘ilib o‘sgan yurti – Oqyer..ni tasvirlashga harakat qiladi. Qissasini o‘qigan kitobxon ham bosh qahramon.... bilan birga xuddiki, yoshlikdagi xotiralarini, soddaliklarini, samimiyligini, beg‘uborligni eslaydi. Yozuvchi: “...kitobdagiga o‘xshatib yozaman, desam, boriyam esimdan chiqib, chalkashib ketadi. Ko‘kayda bo‘lak, yozig‘da bo‘lak bo‘layapti. Keyin kitob tilida yozsam, qishloq odamlari o‘qisa hallozilik qilibdi,

¹ А. Орипов. Умидбахш ижод. Баҳодир Қобул. Эна шамол. Қиссалар. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2011. 4 бет

ichidan to‘qibdi, yolg‘on yozibdi, deb kulishadi...” deya xotirlaydi. Asar tili sodda va ravondir. Shu bois ham u kitobxonni tezda o‘ziga tortadi.

Qissa qahramonlari boshqa asarlardagi qahramonlardan farqli tarzda uchratamiz. Unda Ena, bola, Ota, Mardon Dalli, juhud, Rasmchi kabi obraz va personajlar uchraydi. Adabiyotshunos X. Xudoymurodova asardagi bola obrazi xususida to‘xtalar ekan: “Bola obrazi roviy vazifasini bajaradi. Aslida bu bola obrazining hayotiy prototipi yozuvchining o‘zi. Bola katta enasidan ko‘p ertaklar eshitgan. Bizningcha, Bahodir Qobul bolaligida enasi aytib bergan ertaklar, dostonlar, maqollar ta’sirida ulg‘ayib-o‘sdi, bo‘lajak adibning badiiy olami shu tarzda shakllana brogan”²ligini ta’kidlaydi.

“Yolg‘on gapirgandan yolg‘on yozgan yomon. Gapni-ku to‘g‘rilasa bo‘lar-u, yozig‘ bilan kuygan terini tekislab bo‘lmasmish” – deydi yozuvchi. Chunki Bahodir Qobul hayotda ham yolg‘on gapirishdan qo‘rqan ekan. O‘zining bir tarjimayi holida yolg‘onni otasi ham yomon ko‘rganligini, har doim farzandlariga Allohning Kalomidan chiqmang va yolg‘on so‘zlamang deb, ko‘p nasihat qilganligini eslaydi. Bundan anglashiladiki, adibimiz ham har bir asarida yolg‘ondan tiyilishga harakat qilgan. Aynan bu asarda ham birinchi bo‘limidan o‘ziga qarshi bo‘lgan illatlardan voz kechilishini aytib o‘tadi.

“Enashamol” qissasida “soddalik” mavzusi keng ko‘lamda bayon etilgan. Qissani o‘qish jarayonida aynan mana shu mavzudagi xususiyalar asarga singdirilganini va sodda tilda ravon yozilganini payqaydi kitobxon.

Asarda Bola obrazi o‘ziga xos xislatlari bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Ya’ni u orqali, adibning o‘y – xayollari tasviri bilan bolalarga xos beg‘uborlikni, poklikni yoritib bera olgan. Ena ya’ni buvi Samarqand haqida aytib beradigan hikoya va ertaklari bolani o‘ziga tortadi va u shaharni “Jannat”ga tenglashtirgan holda ko‘z o‘ngida gavgdalanadi. Mana shular bolani Samarqandga mehr uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Bolaning endi birdan bir orzusi Samarqandga borish bo‘lib qoladi. Bir kun otasi unga o‘zi orzu qilgan shaharga borishga ruxsat beradi va ketishida qo‘liga ikkita yigirma tiyinlik pul beradi. Birinchi bor opasi bilan Samarqandga yo‘l oladi. O‘sha vaqtda avtobusda qanday qilib ketish mumkinligi o‘rnidan turib yoshi kattalarga joy berish kerakligini ham tushunmaydi va keyinchalik o‘zining soddaligi tufayli bu narsalarni bilmaganligidan afsuslanadi. Bolaning yana bir qobilyati bor ediki, u ikki tomonlama rasm chiza olardi. Birinchi marta Samarqandda bir juhudga rasm chizib bergan edi. Bu voqea qissada shunday

² <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/bahodir-qobul-1966/bahodir-qobul-ena-shamol-qissa>

tasvirlanadi: “Yangi rasm daftarlardan birini ochib, qora qalamda juhudning yolgʻondan tirjayib turgan suratini chizdim. Bilaman, nima uchun u mendan surat soʻrayapti. Odatda men bir rasmni chizganimda unga tikka qarasangiz boshqa, yonboshdan qarasangiz boshqa rasm boʻladi”³

Asardagi asosiy qahramonlardan biri bu – Ena. Haqiqiy oʻzbekona milliy qadriyatlarni, oʻzbekona ruhni, haqiqiy oʻzbek ayollarini bir siymosini oʻzida jam qilgan obrazdir. “Hut kirishi bilan qishloqni bir zum ostin-ustun qilib, keyin ikki-uch kunlab hurillab turadigan yoqimli shamolni esa “Samarqand shamoli” deb ataydilar. Shamol tinguncha Enamning gʻayrati, shiddati ichiga sigʻmaydi. Hut kirdi, joni borga qurt kirdi, deydilar. Oʻzlari uydan chiqolmasalar ham qimirlagan odamni ishga haydab: “Yerni mustar qilmanglar. Hech boʻlmasa ketman urib qoʻyinglar savob boʻladi, savobi katta” — derlar”. Bu matndan shuni koʻrishimiz mumkinki, Ena milliy urf-odatlarini, anʼanalarni bilgan va oʻzi bilganlarini farzandlari ongiga, qalbiga singdirib borgan. Haqiqiy qishloq hayotini, ularga xos soddalikni tasvirlagan. Bu qatorga biz asardagi mashhur obraz Mardon Dallini ham kiritishimiz mumkin. U mard, bir soʻzda turadigan va eng asosiysi yolgʻonni kechirmaydigan obraz. U xalqini, ona yurtini, qadriyatlarini ulugʻlaydi. Haqiqiy oʻzbek yigitining sof qalbi, soddaligi unda ham bor. Ilmni har nimadan ustun koʻradi. Buni ushbu misralardan bilib olsak boʻladi: “Toʻgʻri gapni qaysi tilda gapirilishini farqi yoʻqmish. Lekin, toʻgʻri gapni koʻtara oladigan til bormish, koʻtara olmaydigan til bormish. Xuddi eldek. Qachonki el toʻgʻri gapni koʻtarsa, til ham toʻgʻri gapni koʻtararmish. Til oʻlik el oʻlik, til tirik el tirik emish, til oʻlamsa el oʻlamsa. Suslik ikkinchi sekretarning qizliq familiyasi”.

Yozuvchi avtobiografiyasini oʻqiyotib, uning qanchalik kamtarligini angladim va bu kamtarlik uning barcha asarlariga ham jo boʻlgan. Qahramonlar oʻzlarining oddiy va soddaligi orqali hayotning asosiy qadriyatlarini tushunishga harakat qilishadi

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, Bahodir Qobul oʻz asarlarida yuzaki fikrlamaydi. Odamlarga maʼqul tushish yoki tushmaslikka qaramaydi. Qahramonlarni boricha koʻrsatishga, ularning kamchiliklarini yashirmaslikka tirishadi. Shuning uchun ham uning asarlari oʻzbek adabiyoti balki, jahon adabiyotlarida durdonalari qatoriga kiradi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobul B. Enashamol. – 2008. Termiz-Shahrisabz-Qarshi

³ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/bahodir-qobul-1966/bahodir-qobul-ena-shamol-qissa>

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
3. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
4. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels.
5. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma’rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.